

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Aprel, 2026-yil

O‘ZBEKISTON VA JAHON SAVDO TASHKILOTI: INTEGRATSIYA YO‘LIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI HAL ETISHDAGI CHORALAR

Shoimov Quvonchbek

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Xalqaro munosabatlar fakulteti 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Nishanova Zulxayo Baxromjon qizi

“Xalqaro iqtisodiyot” kafedrasida shogird-o‘qituvchisi, g-mail:

<mailto:nisanovazulhae@gmail.com>

Annotatsiya: O‘zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a‘zo bo‘lishi mamlakatning xalqaro iqtisodiyotga qo‘shilishida muhim bosqichni tashkil etadi. Bu jarayon, O‘zbekistonning global bozorlar bilan savdo aloqalarini kengaytirish va iqtisodiy islohotlarni joriy etish borasidagi sa‘y-harakatlarini yanada kuchaytiradi. Ushbu maqola, JSTga a‘zo bo‘lish jarayonini o‘rganib chiqadi, uning iqtisodiy ta‘sirini, shuningdek, xalqaro bozorlarga kirish imkoniyatlarini va muammolarini tahlil qiladi va yechimlar beradi. Maqolada keltirilgan statistikalar va tahlillar O‘zbekistonning iqtisodiy o‘shishidagi o‘zgarishlarni, yuzaga kelgan qiyinchiliklar va erishilgan muvaffaqiyatlarni yoritib beradi. Shuningdek, yangi iqtisodiy strategiyalar va ularga doir istiqbollarni ham muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: Global raqobat, Iqtisodiy integratsiya, Eksport salohiyati, Investitsiyalar Raqobatbardoshlik, Texnologiyalar, Innovatsiyalar va Iqtisodiy diversifikatsiya.

UZBEKISTAN AND WORLD TRADE ORGANIZATION: ON THE PATH TO INTEGRATION

Shoimov Quvonchbek

2nd year student at the Faculty of International Relations,

University of World Economy and Diplomacy

Scientific supervisor: Nishanova Zulkhayo Bakhromjon qizi, Assistant Professor of the Department of International Economics, g-mail: <mailto:nisanovazulhae@gmail.com>

Annotation: Uzbekistan’s accession to the WTO is regarded as a crucial step towards integrating into the world economy. Membership in the WTO should facilitate Uzbekistan’s endeavor to boost international trade and undertake economic reforms. This study focuses on the strategic and procedural aspects of joining the WTO, its economic consequences and the potential opportunities in the international marketplace. The data and analyses provided in the article reveal shifts in the economic growth of Uzbekistan, the problems faced and the successes achieved. They also cover new economic policies and their prospects.

Keywords: Global competition, Economic integration, Export potential, Investments, Competitiveness, Technologies, Innovations, and Economic diversification.

**УЗБЕКИСТАН И ВСЕМИРНАЯ ТОРГОВАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ: НА ПУТИ
К ИНТЕГРАЦИИ**

Shoimov Quvonchbek

Студент 2 курса факультета Международных отношений,

Университета мировой экономики и дипломатии

Научный руководитель

Нишанова Зулхаё Бахромжон кизи

Преподаватель-ассистент кафедры Международная экономика, g-mail:

<mailto:nisanovazulhae@gmail.com>

Аннотация: *Процессы, связанные с присоединением Узбекистана к Всемирной торговой организации (ВТО) и деятельность страны с другими членами организации вносят важные изменения в внешние отношения Узбекистана. Наряду с новыми торговыми возможностями происходят сложные изменения в экономической политике. Ожидается, что вступление Узбекистана в ВТО приведет к значительному увеличению экономического роста страны. Эта работа фокусируется на интеграции Узбекистана в глобальную экономику через членство в ВТО и возможностях, которые это членство открывает для экономики Узбекистана.*

Ключевые слова: *Глобальная конкуренция, Экономическая интеграция, Экспортный потенциал, Инвестиции, Конкурентоспособность, Технологии, Инновации, Экономическая диверсификация.*

Jahon Savdo Tashkiloti erkin savdoni rivojlantirish, iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish va davlatlar oʻrtasidagi savdo cheklovlarini kamaytirishga uchun moʻljallangan xalqaro tashkilot hisoblanadi. Jahon Savdo Tashkiloti faoliyati xalqaro munosabatlarda neoliberal institutsionalizm nazariyasi bilan izohlanadi. Bu nazariyaga koʻra xalqaro institutlarning roli juda muhim hisoblanadi, chunki ular davlatlar oʻrtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi, savdo jarayonlarida shaffoflikni taʼminlab, nizolarni hal qilishda turli mexanizmlarni yaratadi. Jahon Savdo Tashkiloti ham aynan shu vazifalarni bajarib, global savdo tizimida qoidalar asosida hamkorlikni rivojlantiradi. Oʻzbekistonning bu tashkilotga qoʻshilishi mamlakatning global iqtisodiyotga yanada chuqurroq integratsiyalashuvi yoʻlidagi muhim qadam hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat yangi savdo imkoniyatlarini yaratishi va iqtisodiy islohotlarni jadallashtirishi, balki xorijiy investitsiyalarni jalb etishga xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, JST aʼzoligi mamlakat uchun muayyan qiyinchiliklarni ham olib kelishi mumkin. Ushbu maqolada Oʻzbekistonning JSTga aʼzo

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Aprel, 2026-yil

bo‘lish jarayoni, uning iqtisodiy va siyosiy jihatlari amalga oshirilayotgan majburiyatlarning samaradorligi hamda bu o‘zgarishlarning ta’siri va istiqbollari tahlil qilinadi.

Millionlab insonlarning yostig‘ini quritgan ikkinchi jahon urushidan keyin ko‘plab davlatlar iqtisodiy inqirozga uchradi. Ushbu muammolarni yengib o‘tish maqsadida turli xalqaro kelishuvlar ishlab chiqilib, proteksionistik to‘siqlarni kamaytirish va davlatlar o‘rtasidagi savdoni erkinlashtirishga harakat qilindi. Shu maqsadda 1947-yilda Tariflar va Savdo bo‘yicha Umumiy Kelishuv (TSUK) yaratildi va uning asosiy vazifasi mamlakatlar o‘rtasidagi tarif va kvotalarni kamaytirish orqali adolatli savdo muhitini shakllantirish edi. Lekin, 1990-yillarning boshida xalqaro savdoni tartibga solish uchun yanada mustahkamroq tuzilma zarurati paydo bo‘ldi. Natijada, 1995-yilda "Marokash shartnomasi" shartnomasi imzolanganidan so‘ng, JST rasmiy ravishda tashkil etildi.¹¹² Bugungi kunda kelib Jahon Savdo Tashkiloti 166 ta a‘zo davlatni birlashtirib, global savdo qoidalarini tartibga soluvchi asosiy xalqaro tashkilot hisoblanadi.¹¹³ Jahon Savdo Tashkilotining asosiy vazifalariga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, bular :

I. Savdo yo‘lidagi to‘siqlarni kamaytirish. JST mamlakatlar o‘rtasidagi erkin savdoni rivojlantirish uchun tariflar, kvotalar va boshqa cheklovlarni bosqichma-bosqich bekor qilishga ko‘maklashadi.

II. Savdo kelishmovchiliklarini hal qilish. Agar davlatlar o‘rtasida savdo bo‘yicha turli nizolar yuzaga kelsa, JST muhokama maydonini yaratib muammolarni adolatli va shaffof hal etishga yordam beradi.

III. Dunyo bo‘ylab savdo hamkorligini mustahkamlash. JST global iqtisodiy integratsiyani qo‘llab-quvvatlab, savdo qonunlarini soddalashtirish, mamlakatlar o‘rtasida ishonchli biznes muhitini yaratish va hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston ilk bor 1994-yilda JSTga qiziqish bildirgan, biroq turli sabablarga ko‘ra jarayon to‘xtab qolgan. O‘zbekistonning JSTga a‘zolik jarayonining uzoq vaqt davom etganligini dunyo bo‘ylab rivojlanayotgan davlatlarning integratsiyalashuvi bilan bo‘g‘lash mumkin. Ya‘nki rivojlanayotgan davlatlar global savdo tizmiga kirishdan oldin o‘z ichki bozorini moslashtirishi, huquqiy bazani isloh qilish va milliy ishlab chiqaruvchilarni raqobatga tayyorlashi talab etiladi. Aynan mana shu omil tufayli, O‘zbekiston JSTga qo‘shilish jarayonida bosqichma-bosqich va ehtiyotkor yo‘lni tanladi. 2016-yildan boshlab JSTga a‘zolik masalasi yana kun tartibiga qaytdi va 2020-yildan bu jarayon yanada faollashdi. Markaziy Osiyodagi qo‘shni davlatlar – Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston allaqachon JSTga a‘zo bo‘lgan. O‘zbekiston esa hali to‘liq qo‘shilmagan bo‘lsa-da, bu yo‘nalishda jadal islohotlarni olib bormoqda. 2024-yil mart oyida Jenevada bo‘lib o‘tgan

¹¹² WTO. “WTO Legal Texts.” *Wto.org*, 2017, www.wto.org/english/docs_e/legal_e/legal_e.htm.

¹¹³ “WTO Members and Observers.” *Wto.org*, World Trade Organization, 2024, http://www.wto.org/english/thewto_e/whatis_e/tif_e/org6_e.htm.

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Aprel, 2026-yil

ishchi yig‘ilish O‘zbekistonning JSTga yaqinlashayotganini ko‘rsatdi. ¹¹⁴Hukumat JST talablari bo‘yicha qonunchilikka o‘zgartirishlar kiritish, davlat savdosi va import tartib-qoidalarini moslashtirish hamda xalqaro standartlarga javob beradigan yangi huquqiy asoslarni shakllantirish bo‘yicha takliflar oldi. Kelgusi muzokaralar yana 2025-yil boshida o‘tkazilishi rejalashtirilgan. JSTga A‘zolikning O‘zbekiston uchun turli yengilliklar hamda qiyinchiliklar olib kelishi mumkin. Avvalo bu jarayon O‘zbekiston iqtisodiyotiga quyidagi ijobiy ta’sirlarni ko‘rsatishi kutilmoqda:

1. Eksport hajmini oshirish – JST qoidalariga mos ravishda turli xil bojxona to‘siqlari pasayadi, bu esa O‘zbekiston mahsulotlarini jahon bozoriga olib chiqishni osonlashtiradi. 2021-yilda mamlakat eksport 16.48 milliard AQSh dollariga yetib, oldingi yilga nisbatan qariyn 14 foizga o‘ydi. ¹¹⁵

2. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish – JST talablari asosida huquqiy va iqtisodiy muhit barqarorlashishi xorijiy investorlarni jalb qilish uchun qulay sharoit yaratadi. 2021-yilda O‘zbekistonga 8.6 milliard dollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb qilingan. ¹¹⁶

3. Innovatsiyalar va texnologik rivojlanish – JST talablariga mos iqtisodiy liberallashtirish jarayoni raqamli iqtisodiyot va sanoat tarmoqlarining o‘shishini rag‘batlantiradi.

4. Yangi bozorlar ochilishi – JSTga a‘zolik O‘zbekiston mahsulotlari uchun xalqaro bozorlarga chiqish imkonini kengaytiradi. Ayniqsa, tekstil, meva-sabzavotlar va avtomobil sanoati yetakchi eksport yo‘nalishlari bo‘lib qolmoqda.

JST a‘zoliqi O‘zbekiston iqtisodiyotiga ba‘zi qiyinchiliklarni ham olib kelishi mumkin, xususan:

1. Ichki bozorning global raqobatga moslashishi – Jahon Savdo Tashkilotiga a‘zo bo‘lish natijasida xorijiy mahsulotlar erkin kirib kelishi mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Ya’ni, bu jarayon mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun yangi raqobat muhitini yaratadi va ularning samaradorligini oshirish zaruratini tug‘diradi. Aks holda, xorijiy kompaniyalar bilan raqobatga dosh bera olmaydigan korxonalar bozordan chiqib ketishi mumkin.

¹¹⁴ “Uzbekistan Continues to Make Progress towards WTO Accession.”

http://Www.wto.org,www.wto.org/english/news_e/news24_e/acc_24may24_e.htm

¹¹⁵ Uzbekistan Exports. <https://www.macrotrends.net/global-metrics/countries/uzb/uzbekistan/exports>

¹¹⁶ The Tashkent Times. <https://mail.tashkenttimes.uz/economy/8126-uzbekistan-drew-us-8-6-billion-in-foreign-direct-investment-in-2021>

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-April, 2026-yil

2. Davlat subsidiyalarining qisqartirilishi – JST talablariga binoan, ayrim sohalarga davlat tomonidan subsidiya ajratish kamaytiriladi, bu esa ba’zi tarmoqlarga salbiy ta’sir ko’rsatishi va ularning raqobatbardoshligini pasaytirishi mumkin.

3. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun yangi talablar – xalqaro standartlarga moslashish mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun qo’shimcha majburiyatlar yuklaydi. Bu jarayon ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirish, texnologik va kadrlar bazasini takomillashtirish va iste’molchilarning didi hamda afzalliklarini o’rganishni talab etadi.

O’zbekistonning JSTga qo’shilishi katta imkoniyatlar yaratadi, lekin bu jarayon oson kechmaydi. Chunki ichki bozorda raqobat kuchayadi va mahalliy korxonalar yangi sharoitga moslashishi kerak bo’ladi. Shu sababli muammolarni oldindan ko’rib, ularga mos choralar ko’rish muhim. Birinchi navbatda, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo’llab-quvvatlash kerak. Xorijiy mahsulotlar ko’payganda ayrim korxonalar raqobatda qiynalishi mumkin. Shuning uchun ularni shunchaki himoya qilish emas, balki yangi uskunalari, sifatli ishlab chiqarish va eksportga tayyorlash orqali kuchaytirish zarur. Ikkinchi muammo bu subsidiyalar masalasi. Agar davlat yordami birdan kamayib ketsa, ayrim tarmoqlar qiyn ahvolga tushishi mumkin. Shu bois subsidiyalarni asta-sekin o’zgartirib, ularni zamonaviy texnologiya, energiya tejamkorligi va eksportni rivojlantirishga yo’naltirish maqsadga muvofiq bo’ladi. Yana bir muhim masala albatta xalqaro standartlarga moslashish. Ko’plab tadbirkorlar uchun sifat, sanitariya va texnik talablarni bajarish oson emas. Shuning uchun sertifikat olish jarayonini soddalashtirish, laboratoriyalar va maslahat xizmatlarini kuchaytirish kerak.

Xulosa qilib aytganda, O’zbekistonning JSTga qo’shilish jarayoni uzoq davom etayotgan bo’lib, u mamlakat iqtisodiyotining xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini oshirish, eksport imkoniyatlarini kengaytirish va investitsiya muhitini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, JSTga a’zolik iqtisodiy islohotlarni jadallashtirish va bozor munosabatlariga moslashish jarayonini tezlashtiradi. Barcha talablarni to’liq bajargan holda, O’zbekiston JSTga qo’shilishi natijasida global iqtisodiyotda o’z mavqeini mustahkamlash va bundan tashqari raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatiga ega bo’ladi. Shu sababli, Jahon Savdo Tashkilotiga a’zoligi mamlakat uchun muhim burilish nuqtasi bo’lib, iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichiga yo’l ochadi. Bundan tashqari JSTga a’zo bo’lish O’zbekistonga nafaqat iqtisodiy foyda, balki xalqaro iqtisodiy institutlar orqali barqaror rivojlanishga erishishdagi muhim vosita bo’lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

akbaryusupov. “Uzbekistan Drew US\$ 8.6 Billion in Foreign Direct Investment in 2021.” *Tashkenttimes.uz*, 2021, [mail.tashkenttimes.uz/economy/8126-uzbekistan-drew-us-8-6-billion-in-foreign-direct-investment-in-2021](mailto:tashkenttimes.uz/economy/8126-uzbekistan-drew-us-8-6-billion-in-foreign-direct-investment-in-2021).

European Union. “Facilitating the Process of Uzbekistan’s Accession to the World Trade Organization (WTO).” *EEAS*, 20 Feb. 2020,

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Aprel, 2026-yil

http://www.eeas.europa.eu/delegations/uzbekistan/facilitating-process-uzbekistan%E2%80%99s-accession-world-trade-organization-wto_en.

Macrotrends. “Uzbekistan Exports 1997-2024.” *Macrotrends.net*, 2024, www.macrotrends.net/global-metrics/countries/UZB/uzbekistan/exports.

Putz, Catherine. “Uzbekistan Eyes March 2026 Accession to the WTO.” *The Diplomat.com*, The Diplomat, 10 Jan. 2026, thediplomat.com/2026/01/uzbekistan-eyes-march-2026-accession-to-the-wto/. Accessed 18 Mar. 2026.

WTO. “World Trade Organization - Global Trade.” *Wto.org*, 2019, <http://www.wto.org>.

“WTO Legal Texts.” *Wto.org*, 2017, http://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/legal_e.htm.

“WTO Members and Observers.” *Wto.org*, World Trade Organization, 2024, http://www.wto.org/english/thewto_e/whatis_e/tif_e/org6_e.htm.